

SHARQ ALLOMALARI MEROSIDA GUMANISTIK G‘OYALAR TAVSIFI

Negmatov B.M.,

*Sarbon universiteti “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi professori, falsafa
fanlari doktori (DSc)*

*Профессор кафедры «Социальных и гуманитарных наук» Сарбонского
университета, доктор философии (DSc)*

*Professor of the Department of “Social and Human Sciences” of Sarbon
University, Doctor of Philosophy (DSc)*

Annotatsiya: Maqolada gumanizm fenomeni va uning rivojlanish bosqichlari, Sharqning buyuk mutafakkirlari Forobiy, Beruniy, Ibn Sinolarning insonparvarlik g‘oyalari tahlil qilingan hamda ularni bugungi kunda jaholatga qarshi kurashda asosiy omil bo‘lib xizmat qilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: gumanizm, gumanistik g‘oyalar, fozil shahar, barkamol inson, aqliy rivojlanish, bilimga intilish, madaniy relyativizm, axloqiy fazilatlar, axloqiy kamolot, adolat, baxt-saodat, farovonlik.

Аннотация: В статье анализируется феномен гуманизма и этапы его развития, гуманистические идеи великих мыслителей Востока, таких как Аль-Фараби, Аль-Бируни и Ибн Сина, и подчеркивается их роль как ключевого фактора в борьбе с невежеством в наши дни.

Ключевые слова: гуманизм, гуманистические идеалы, добродетельный город, совершенная личность, интеллектуальное развитие, стремление к знаниям, культурный релятивизм, моральные добродетели, моральное совершенство, справедливость, счастье, процветание.

Abstract: The article analyzes the phenomenon of humanism and the stages of its development, the humanistic ideas of the great thinkers of the East, such as Al-Farabi, Al-Biruni, and Ibn Sina, and highlights their role as a key factor in the fight against ignorance today.

Keywords: *humanism, humanistic ideals, virtuous city, perfect person, intellectual development, pursuit of knowledge, cultural relativism, moral virtues, moral perfection, justice, happiness, prosperity.*

Kirish. Bugungi kunda har bir insonning hayotiy faoliyatini ezgu maqsadlar sari yoʻnaltirish nafaqat mamlakatimiz miqyosida, balki jahon hamjamiyati doirasida yechilishi lozim boʻlgan dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi tub oʻzgarishlar inson tafakkuri va faoliyatiga taʼsir koʻrsatib, uni yanada faolroq harakat qilishga undaydi. Bu jarayon esa, oʻz navbatida, jamiyat taraqqiyoti mexanizmlarining takomillashuviga olib keladi. Taraqqiyot jarayonida gumanistik gʻoyalardan samarali foydalanish uni yanada barqaror ahamiyat kasb etishini taʼminlaydi. Bunday yondashuvning shakllanishi uzoq tarixiy tajribalar bilan chambarchas bogʻliq boʻlib, buni Uygʻonish davridagi gumanistik gʻoyalarni jamiyat taraqqiyotiga koʻrsatgan taʼsiridan bilib olish mumkin.

Gumanizm atamasi Yevropa va boshqa mamlakatlar olimlari tomonidan XIX asrning boshlarida qoʻllanila boshlandi. Oʻz navbatida, insonparvarlik – odamlarga gʻamxoʻrlik va yaxshilik qilish, ularga mehr-muruvvatli boʻlish, moddiy va maʼnaviy jihatdan yordam koʻrsatishni bildiruvchi tushunchadir. U odamzotning qadri, erkinligi, qobiliyati va fazilatlarini kamolga yetkazish uchun kurashish, insonning baxt-saodati, adolatli va farovon hayoti, teng huquqligi, tinchligini taʼminlashni taqozo etadi. Gumanizm inson shaxsini ulugʻlaydi, boshqa jonzotlardan afzalligini asoslaydi va insonda haqiqiy odamiylik xislatlarini yuksaltirishga koʻmaklashadi [1].

Maʼlumki, gumanizm – insonning qadr-qimmatini, erkinligi, aql-zakovati va ijodiy salohiyatini markaziy oʻringa qoʻyadigan falsafiy va axloqiy dunyoqarashdir. Ushbu gʻoya oʻrta asrlardagi diniy taʼlimotlardan farqli ravishda, insonning shaxsiy rivojlanishi, oʻz-oʻzini anglashi va ijtimoiy farovonligiga eʼtibor beradi [2]. Gumanizm oʻzining quyidagi tamoyillariga ega:

1. Insonning markaziy oʻrni. Gumanizm insonni oʻz taqdirini belgilay oladigan, aql-idrok va ijodkorlikka ega mavjudot sifatida koʻradi.

2. Erkinlik va mas'uliyat. Har bir shaxs o'z hayotini erkin boshqarish huquqiga ega, lekin bu erkinlik boshqalarga hurmat va mas'uliyat bilan birga keladi.

3. Empatiya va tenglik. Gumanizm barcha odamlarni teng deb biladi va ularning his-tuyg'ulari, ehtiyojlari va huquqlarini hurmat qilishni targ'ib qiladi.

4. Ilm va ijodkorlikka e'tibor. Ilmiy bilim, san'at va ijodiy faoliyat insonning o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishiga yordam beradi.

5. Ijtimoiy adolat. Gumanistik g'oyalar ijtimoiy hayotdagi tengsizliklarni bartaraf etish va adolatli jamiyat qurishni qo'llab-quvvatlaydi.

Shunday ekan, hozirgi murakkab sharoitda insonning qadr-qimmati masalasi dolzarb mavzuga aylanib bormoqda. Chunki jamiyat hayotidagi keskin o'zgarishlarga har kim ham moslashavermaydi. Bu esa, o'z navbatida, jamiyatdagi ko'pgina muammolar yuzaga kelishiga zamin yaratadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda har bir insonning hayotiy faoliyatini ezgu maqsadlar sari yo'naltirish nafaqat mamlakatimiz miqyosida, balki jahon hamjamiyati doirasida yechilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda. Jamiyatdagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy munosabatlardagi tub o'zgarishlar inson tafakkuri va faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, uni yanada faolroq harakat qilishga undaydi. Bu jarayon esa, o'z navbatida, jamiyat taraqqiyoti mexanizmlarining takomillashuviga olib keladi. Taraqqiyot jarayonida gumanistik g'oyalardan samarali foydalanish uni yanada barqaror ahamiyat kasb etishini ta'minlaydi. Bunday yondashuvning shakllanishi uzoq tarixiy tajribalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, buni Uyg'onish davridagi gumanistik g'oyalarni jamiyat taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'siridan bilib olish mumkin.

Gumanistik g'oyalar – insonning qadr-qimmati, erkinligi, ma'naviyati, bilimga intilishi, axloqiy kamoloti, tenglik va bag'rikenglikni asosiy qadriyat deb biluvchi fikrlar tizimidir [3]. Bu g'oyalar ko'p hollarda mutafakkirlar, faylasuflar, adiblar, din ulamolari asarlari orqali targ'ib qilinadi.

Gumanistik g'oyalarning shakllanishida qadimgi Sharq falsafiy tafakkuri, Yunon va Rim madaniyati, insoniyatning hurfikrlilik an'analari, aqlning faolligi, vijdon va iroda erkinligi g'oyalari muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, o'rta asr Sharq falsafiy tafakkur taraqqiyotida gumanizm masalasi o'ziga xos tarzda tushunilgan va tushuntirilgan. Buni ulug' mutafakkirlar qarashlari orqali bilib olish mumkin. Gumanizm g'oyalarning rivoji har bir davrda o'ziga xos ahamiyat kasb etgan va

o'zining rivojlanish xususiyatlarini ishlab chiqqan. Gumanistik g'oyalarni asoslab berishda bu davrda yashagan har bir faylasufning o'ziga xos yondashuvi bo'lgan.

Gumanistik g'oyalar ijtimoiy hayotdagi ijtimoiy faollik, jamiyatning real amaliy ehtiyojlari voqeiy olamini, tabiatni yangicha mushohada etishga, qadimiy ma'naviy merosni o'ziga xos talqin etishga, unga tanqidiy yondashishga, tadqiqotlar mavzusi va yo'nalishini keskin ravishda eksperimentlar, kuzatuvlar tomoniga burib yuborishga, eski sxolastik, mavhum tafakkur tamoyillari va talablaridan voz kechish orqali yanada takomil bosqichga chiqdi.

Tahlil va natijalar. O'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi buyuk mutafakkirlar o'zlarining gumanistik g'oyalarni bir qator asarlarida keng ifodalaganlar. Mazkur asarlar zamonaviy ta'limda axloq-odob, tinchlikparvarlik, ijtimoiy birdamlik kabi qadriyatlarning shakllanishiga xizmat qilmoqda.

Darvoqe, Forobiy, Beruniy va Ibn Sinoning gumanistik g'oyalari o'rta asr islom falsafasi va madaniy an'analari muhim o'rin egallaydi. Ularning g'oyalari insonning kamoloti, jamiyatning takomillashishi va madaniy ko'p qirralilikni qadrlashga qaratilgan.

Xususan, Abu Nasr Forobiy o'zining ijtimoiy-siyosiy ta'limotida ideal jamiyat, ya'ni fozil shahar tushunchasini ilgari suradi. Uning hisoblashicha, aynan shu yerda insonlar axloqiy va intellektual jihatdan kamol topadilar. Forobiy faylasuf-hokimning jamiyatni boshqarishda muhim rol o'ynashini e'tirof etadi, dinni esa xalqni yaxshilik va baxtga yetkazish vositasi sifatida ko'rib chiqadi. Shuningdek, alloma ilm-fan, axloq va siyosiy tashkilotning jamiyatdagi uyg'unlik, adolat va tenglikni ta'minlashdagi ahamiyatini alohida e'tirof etadi.

Shuni ta'kidlash joizki, Forobiyning gumanizmi uning islom diniga bo'lgan munosabatida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Faylasufning nazaricha, din falsafaga qarshi emas, balki ular bir-birini to'ldirib, davlatni boshqarishda ishtirok etishi lozim. U din inson kamolotiga, jamiyatga, ma'rifatga xizmat qilishi lozimligini uqtiradi. Forobiy islom dini va Qur'onga katta hurmat bilan qaraydi, unga kishilarni axloq va xulq-odob qoidalarini o'rgatuvchi manba sifatida yondashadi [4].

Xulosa va takliflar. Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning gumanistik g'oyalari turli madaniyatlar va dinlarni taqqoslashda yaqqol namoyon bo'ladi. Beruniy o'zining "Hindiston" asarida hind madaniyati, dini va ilm-fanini o'rgangan

va har bir din va madaniyatning o'ziga xosligini tushuntirishga harakat qilgan [5]. U xalqlar o'rtasida umumiy insoniy aloqalarni topib, madaniy relyativizmni qo'llab-quvvatlagan. Beruniyning uslubi til o'rganish, asl matnlarni o'qish va obyektiv, xolisona tahlilga asoslangan, aynan ushbu jihat uning gumanistik yondashuvini ko'rsatadi.

Beruniyning insonparvarligi shundan iboratki, u insonlarning baxt-saodati, farovonligi to'g'risida o'ylaydi. Lekin baxt-saodatga erishish uchun odamlar mehnat qilishi, jamiyatda adolat o'rnatilishi lozim. U o'z salafлари singari odil va fozil hukmdor davlatni boshqarishi kerakligini uqtiradi. Biroq u podshohlik avloddan avlodga meros bo'lib o'tishiga qarshi chiqadi. Allomaning fikricha, podshohlik lavozimiga o'zining kelib chiqishi, nasl-nasabi bilan emas, balki xizmatlari, xalqqa qilgan g'amxo'rлиgi, sabr-toqatli va qat'iyatligi bilan erishishi kerak. Eng muhimi, davlatni boshqarishga iqtidori, qobiliyati bo'lgan insongina bunday oliy mansabni egallashga haqlidir.

Buyuk faylasuf va tabib Abu Ali ibn Sino gumanistik g'oyalarining asosini esa insonning aqliy rivojlanishi va bilimga intilishi tashkil etadi. U o'zining "Shifo kitobi"da metafizika, mantiq va tabiiy fanlarni inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini yoritadi, shuningdek, axloqiy hayot va jismoniy salomatlikning intellektual rivojlanishga yordam berishini ta'kidlaydi. Bu Ibn Sino gumanistik yondashuvining muhim jihati sanaladi. Alloma Arastuning axloqiy ta'limotiga asoslanib, baxtga intellektual faoliyat orqali erishish mumkin, deb hisoblaydi. Bundan tashqari, Ibn Sino ilmiy bilimni axloqiy va diniy amaliyotlar bilan bog'laydi, insonning ruhiy va jismoniy rivojlanishini yaxlit tizim sifatida e'tirof etadi.

Ibn Sino gumanistik qarashlarining muhim xususiyatlaridan biri shundan iboratki, u axloqiy fazilatlarni egallash, axloqiy kamolot sari intilish, xulq-odob qoidalariga amal qilishni insonparvarlikning muhim alomati, deb biladi [6]. Shuning uchun mutafakkirning ko'p asarlarida ushbu masalaga katta e'tibor beriladi. Ularda yaxshilik va yomonlik, adolat, mo'tadillik, me'yorga amal qilish, sabr-toqat, ilm egallash, saxiylik, sihat-salomatlik, badan tarbiyasi va boshqa axloqiy tushunchalar haqida fikr yuritiladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqib aytish mumkinki, Forobiy, Beruniy, Ibn Sinoning gumanistik g'oyalari o'ziga xos bo'lsa-da, ularning umumiy maqsadi insonni har tomonlama kamolotga yetkazish va jamiyatni takomillashtirish bo'lgan.

Shu bois, Forobiy fozil jamiyat va fazilatli insonni kamol toptirishga, Beruniy bilimga intilish, inson va tabiat uyg'unligini qadrlashga, Ibn Sino esa axloqiy fazilatlar va shaxs kamolotini rivojlantirishga e'tibor qaratgan. Ularning g'oyalari o'rta asr islom falsafasida chuqur iz qoldirgan va zamonaviy gumanistik oqimlarning shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Adabiyotlar:

1. Гивишвили Г.В. Философия гуманизма. – М.: Поколение, 2009. – С. 24.
2. O'sha asarda, 27-bet.
3. Назаров Қ.Н. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. – Т.: Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти, 2023, 279-бет.
4. Ҳотамий Саййид Муҳаммад. Ислом тафаккури тарихидан. – Т.: Минҳож, 2003, 57-бет.
5. Xolmuradov R. va boshq. Birinchi Renessans allomalari. – Т.: Yangi asr avlodi, 2023. – В. 129-130.
6. O'sha asarda, 156-bet.